

**NARRATIV YONDASHUV VOSITASIDA TALABALARNING
KASBIY-EMOTSIONAL INTELLEKTINI RIVOJLANTIRISHNING
DIDAKTIK IMKONIYATALARI.**

Angren Universiteti direktori

Sadiyeva Shaxnoza Xusanovna

Annotatsiya: Mazkur maqolada narrativ yondashuv vositasida talabalarning kasbiy-emotsional intellektini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda kasbiy-emotsional intellekt pedagogik faoliyat samaradorligini ta'minlovchi muhim shaxsiy-kompetensial sifat sifatida talqin etiladi. Narrativ yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni talabalarning hissiy o'zini anglash, empatiya, reflektiv tafakkur va kasbiy identifikatsiyasini rivojlantirishga xizmat qilishi asoslab beriladi. Maqolada narrativ metodlarning (kasbiy hikoyalar, reflektiv suhbatlar, shaxsiy tajribani tahlil qilish) didaktik salohiyati ochib berilib, ularning pedagogik ta'lim amaliyotidagi o'rni yoritiladi. Tadqiqot natijalari narrativ yondashuv talabalarning kasbiy-emotsional intellektini rivojlantirishda samarali pedagogik vosita ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: narrativ yondashuv, kasbiy-emotsional intellekt, hissiy intellekt, empatiya, kasbiy refleksiya, pedagogik ta'lim, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, reflektiv tafakkur, didaktik imkoniyatlar.

Didactic Possibilities of Developing Students' Professional Emotional Intelligence through a Narrative Approach

Abstract: This article provides a scientific and theoretical analysis of the didactic possibilities of developing students' professional emotional intelligence through a narrative approach. Professional emotional intelligence



is interpreted as an important personal and competence-based quality that ensures the effectiveness of pedagogical activity. It is substantiated that an educational process organized on the basis of a narrative approach contributes to the development of students' emotional self-awareness, empathy, reflective thinking, and professional identification. The article reveals the didactic potential of narrative methods (professional stories, reflective dialogues, analysis of personal experience) and highlights their role in pedagogical education practice. The research findings indicate that the narrative approach is an effective pedagogical tool for developing students' professional emotional intelligence.

Keywords: narrative approach, professional emotional intelligence, emotional intelligence, empathy, professional reflection, pedagogical education, learner-centered education, reflective thinking, didactic possibilities.

Дидактические возможности развития профессионально-эмоционального интеллекта студентов средствами нарративного подхода

Аннотация: В данной статье с научно-теоретических позиций анализируются дидактические возможности развития профессионально-эмоционального интеллекта студентов средствами нарративного подхода. Профессионально-эмоциональный интеллект рассматривается как важное личностно-компетентностное качество, обеспечивающее эффективность педагогической деятельности. Обосновывается, что образовательный процесс, организованный на основе нарративного подхода, способствует развитию эмоционального самосознания, эмпатии, рефлексивного мышления и профессиональной идентификации студентов. В статье раскрывается дидактический потенциал нарративных методов (профессиональные истории, рефлексивные

беседы, анализ личного опыта) и освещается их место в практике педагогического образования. Результаты исследования показывают, что нарративный подход является эффективным педагогическим средством развития профессионально-эмоционального интеллекта студентов.

Ключевые слова: нарративный подход, профессионально-эмоциональный интеллект, эмоциональный интеллект, эмпатия, профессиональная рефлексия, педагогическое образование, личностно-ориентированное обучение, рефлексивное мышление, дидактические возможности.

Bugungi kunda pedagog kadrlar tayyorlash jarayonida nafaqat nazariy bilimlar, balki mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, refleksiv yondashuv, ijtimoiy-kommunikativ madaniyat kabi ko‘nikmalar ham alohida ahamiyat kasb etmoqda. Bu kompetensiyalar narrativ yondashuv orqali rivojlanadi. Talabaning muntazam ravishda o‘z dars jarayoni, shaxsiy tajribasi, kasbiy kuzatishlari haqida hikoya shaklida yozishi uning kasbiy o‘zligini rivojlanish jarayonini tezlashtiradi.

Narrativ yondashuvni o‘quv jarayoniga integratsiya qilishning amaliy mexanizmlari quyidagilar hisoblanadi:

1. Maxsus metodik qo‘llanmalar shakllantirish. Narrativ yondashuv bo‘yicha maxsus metodik qo‘llanmalar ishlab chiqish oliy ta’lim tizimining me’yoriy va tashkiliy asoslarini mustahkamlaydi. Ushbu qo‘llanmalarda hikoya qilish texnikasi, metaforik fikrlash, esse yozish uslubiyati, narrativ tahlil algoritmlari, talabalarning mustaqil ishlari uchun yo‘riqnomalar aks etishi zarur. Rus olimlaridan O.B.Lebedeva va A.V.Sokolova narrativ metodlar bo‘yicha o‘quv qo‘llanmalarida hikoya strukturasini qurish,

qahramonlarning motivatsion xaritasini tahlil qilish kabi mashqlarni samarali deb hisoblaydi¹.

2. *O'qituvchilarning malaka oshirish kurslarida narrativ yondashuv bo'yicha treninglar tashkil etish.* Pedagog kadrlar uchun malaka oshirish dasturlarida narrativ pedagogika bo'yicha amaliy seminarlar, rol o'ynash mashg'ulotlari, refleksiv yozuvlar tahlili, videohikoya yaratish bo'yicha ustaxona darslarini tashkil etish zarur. Bu o'qituvchilarning o'z darslarida narrativ strategiyalardan ongli ravishda foydalanish malakasini kuchaytiradi. T.A.Florenskaya pedagoglarni tayyorlashda metaforik hikoyalar bilan ishlash o'quvchilarning kommunikativ sezgirligini kuchaytirishini ta'kidlaydi².

3. *O'quv jarayonida, mustaqil ta'limda narrativ yondashuv vositasida shakllantirilgan topshiriqlar salmog'ini oshirish.* Pedagogik oliy pedagogik ta'limda esse yozish, kundalik yuritish, refleksiya matnlari shakllantirish, interfaol bahs-munozaralar o'tkazish, hikoya qilishga asoslangan mashqlar muntazam ravishda joriy etilishi kerak. Bunday topshiriqlar talabaning tahliliy fikrlashini, muloqot madaniyatini, ijodkorlik salohiyatini, kasbiy pozitsiyasini mustahkamlaydi. Bu yo'nalishda metaforik ertaklarpedagogik faoliyatga doir vaziyatlar tahlili, psixodramatik mashqlar, rol o'ynash texnikalari keng qo'llaniladi. Rus psixologi I.V.Vachkov terapevtik hikoyalar orqali shaxsning ichki resurslarini faollashtirish mumkinligini keltirib o'tgan³. Shu bois, pedagogik oliy ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlar, mavjud psixologik xizmatlarda ham narrativ metodlarni integratsiya qilishi lozim. Shuningdek, kasbiy refleksiya va hissiy savodxonlikni rivojlantirishda "hayotiy yo'l xaritasi", "biografik esselar", "kasbiy tarixlar tahlili" kabi metodlar samarali hisoblanadi⁴. Talabalar o'zlarining shaxsiy tajribalari,

maktab amaliyoti jarayonida kuzatgan vaziyatlari haqida voqeyiy hikoyalar yaratish orqali bo‘lajak pedagogik faoliyatiga samarali tayyorlanadilar.

Psixonarratologiya – inson tafakkuri va xotirasida narrativ strukturalarning shakllanishini o‘rganuvchi ilmiy yo‘nalishdir. Ushbu yo‘nalish asoschilari inson ongining voqelikni idrok etishi ko‘pincha hikoya shaklida bo‘lishini ta’kidlaydi. Bruner nazariyasiga ko‘ra, inson bilimlarni ikki asosiy uslubda kodlaydi: paradigmatic (mantiqiy-tushunchaviy) va narrativ (hikoyaviy). Shaxsiy hikoya, metafora ikkinchi turga mansub bo‘lib, insonning o‘z tajribalarini ma’noga solish va anglash jarayonida asosiy vosita hisoblanadi. Quyida shaxsiy hikoya va metaforaning didaktik imkoniyatlari tahlil qilinadi:

1. Shaxsiy hikoyaning ilmiy asoslarini avtobiografik xotira tadqiqotlari tashkil etadi. Tadqiqotchilar fikricha, avtobiografik xotira shaxsning o‘z hayoti haqida yaratgan hikoyasidir. Ushbu jarayon orqali shaxs o‘zining kechmishini anglaydi, bugungi identitetini rivojlantiradi va kelajak hayot strategiyalarini belgilaydi. Shaxsiy hikoya o‘zlik konstruksiyasining markaziy komponenti sifatida namoyon bo‘ladi. Shaxsiy hikoya jarayonida intersubyektivlik hodisasi yuzaga keladi, ya’ni hikoyachi va tinglovchi o‘rtasida umumiy semantik maydon shakllanadi. Bu esa shaxslararo muloqotni chuqurlashtiradi va emosional rezonansni kuchaytiradi. Shu bois, shaxsiy hikoya nafaqat bilim almashinuvi, balki hissiy integratsiya jarayoni hamdir.

Pedagogik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, shaxsiy hikoya metodidan foydalanish talabalarning refleksiv kompetensiyalarini rivojlantiradi, ularni o‘z o‘qish jarayoniga tanqidiy yondashishga undaydi. Bundan tashqari, bu metod inklyuziv ta’limda ham samarali hisoblanadi, chunki turli ijtimoiy-madaniy guruhlardan kelgan talabalar o‘z tajribalarini baham ko‘rib, sinfda o‘zaro tushunishni mustahkamlaydi.

Psixologiyada, xususan, klinik va maslahat berish amaliyotida shaxsiy hikoya asosiy metodlardan biridir. Narrativ terapiya shaxsning muammoli tajribalarini qayta hikoya qilish orqali ularga yangi ma'no berishga qaratilgan. Ushbu yondashuvga ko'ra, insonning o'z hayoti haqida hikoya qilishi uning ruhiy sog'lig'iga bevosita ta'sir ko'rsatadi, chunki tajriba mazmuni qayta tuzilgan sari subyekt o'zini yangi ko'z bilan ko'ra boshlaydi. Masalan, depressiya yoki travmadan aziyat chekayotgan inson o'z boshidan kechirgan voqealarni qayta hikoya qilish orqali ularni yangi semantik doiraga joylashtiradi. Natijada kognitiv reframing jarayoni yuzaga keladi, ya'ni voqealarning salbiy talqini ijobiyroq, ma'noliroq talqin bilan almashtiriladi. Bu esa shaxsning ruhiy barqarorligini tiklashga xizmat qiladi. Bundan tashqari, shaxsiy hikoya metodining psixoterapiyadagi samaradorligi empatiya va emosional rezonans mexanizmlariga asoslanadi. Terapevt bemorning hikoyasini tinglash orqali uning hissiy dunyosiga kirib boradi, bu esa o'zaro ishonchni mustahkamlaydi. Shu tarzda, shaxsiy hikoya nafaqat tashxis qo'yish vositasi, balki terapevtik ta'sirning o'zagi sifatida ham qaraladi.

Sotsiologiyada shaxsiy hikoya metodidan foydalanish jamiyatdagi mikrojarayonlarni chuqurroq tahlil qilish imkonini beradi. Biografik intervyu va hayotiy yo'l tadqiqotlari metodlari shaxsiy hikoya asosiga qurilgan bo'lib, ular yordamida tadqiqotchilar individlarning ijtimoiy o'rnini, qadriyatlarini va dunyoqarashini o'rganadilar. Masalan, migratsiya jarayonlari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda migrantlarning shaxsiy hikoyalari ularning qaror qabul qilish sabablari, moslashuv mexanizmlari va madaniy integratsiya jarayonlarini ochib beradi. Shuningdek, gender tadqiqotlarida ayollar yoki boshqa ijtimoiy guruhlar hikoyalari orqali jamiyatdagi tengsizliklar va ijtimoiy me'yorlarning ta'siri tahlil qilinadi. Shaxsiy hikoya metodining sotsiologiyadagi muhim jihati shundaki, u mikrosotsiologik nazariyalarni empirik ma'lumotlar bilan boyitadi. Hikoya orqali yig'ilgan ma'lumotlar



kontekstual tahlil qilish imkonini beradi, ya'ni tadqiqotchi shaxsning hayotiy voqealarini kengroq ijtimoiy-siyosiy sharoit bilan bog'lab ko'radi.

Metafora – inson tafakkurining eng qadimiy va eng samarali vositalaridan biri bo'lib, u murakkab va abstrakt tushunchalarni sodda hamda vizual shaklda ifodalash imkonini beradi. Tilshunoslik, psixologiya, pedagogika va kommunikatsiya nazariyalarida metafora faqat adabiy uslub emas, balki kognitiv mexanizm sifatida ham ko'rib chiqiladi. Kontseptual metafora nazariyasi inson ongining murakkab hodisalarni oddiyroq tajribalar orqali tushunishga moyilligini ilmiy asosda izohlaydi. Zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda metaforaning o'rni tobora ortib bormoqda, chunki u abstrakt bilimlarni konkretlashtirish, emosional rezonansni kuchaytirish hamda ijtimoiy muloqotni samarali tashkil etish imkoniyatlarini beradi. Pedagogik jarayonlarda metafora yordamida murakkab tushunchalar osonroq o'zlashtiriladi, psixoterapiyada esa u shaxsning his-tuyg'ularini va muammolarini anglashda asosiy vosita sifatida xizmat qiladi.

Metafora pedagogik jarayonda talabalarga murakkab ilmiy tushunchalarni oddiy va vizual shaklda yetkazish imkonini beruvchi samarali didaktik vositadir. Kognitiv konstruktivizm nazariyasiga ko'ra, bilimlar shaxsning mavjud kognitiv strukturalariga asoslangan holda shakllanadi. Shu sababli metafora talabalar ongida yangi tushunchalarni mavjud bilimlar bilan bog'lash jarayonini tezlashtiradi. **Aytaylik**, *biologiya darsida hujayra tuzilishini “kichikroq zavod” sifatida talqin qilish talabalarga har bir organellaning funksiyasini aniqroq tasavvur qilish imkonini beradi. Shu tarzda metafora nafaqat bilimlarni tushunarli qiladi, balki ularni uzoq muddatli xotirada saqlanishiga ham yordam beradi.*

Shuningdek, pedagogik tadqiqotlar metafora metodidan foydalanish talabalarning refleksiv fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Ular metafora orqali abstrakt tushunchalarni o'z tajribasiga moslashtirib, ularning

mazmunini chuqurroq anglaydi. Bu jarayon metakognitiv ko'nikmalarni rivojlantirish uchun ham asos yaratadi. Metafora ijtimoiy muloqot va madaniyatshunoslikda ham keng qo'llanilmoqda. Diskurs tahlili metodologiyasida metafora jamiyatdagi dominant g'oyalar va qadriyatlarni shakllantiruvchi asosiy vosita sifatida ko'riladi.

Raqamli muloqotda metafora yanada ta'sirchanroq bo'lib bormoqda. Ijtimoiy tarmoqlar va ommalashgan mediada metafora orqali oddiy tushunchalar global auditoriyaga qisqa va ta'sirchan shaklda yetkaziladi. **Masalan,** *ekologik harakatlarda “Yer – bizning uyimiz” metaforasi insonlarning mas’uliyat hissini kuchaytirishga xizmat qiladi.*

Shu bilan birga, metodlarning ba’zi cheklovlari ham mavjud: subyektivlikning yuqoriligi, semantik noto’g’ri talqinlar, emosional og’irlik va metodik murakkablik. Ammo to’g’ri yondashuv va puxta metodologik asoslash bilan bu cheklovlar minimallashtirilishi mumkin. Zamonaviy raqamli kommunikatsiya narrativ metodlarning imkoniyatlarini yanada kengaytirmoqda. Multimodal narrativlar (matn, vizual, audio va video uyg’unligi) yordamida hikoya, metafora va refleksiya global auditoriyaga tezkor va ta'sirchan shaklda yetib boradi. Bu esa ularni nafaqat ta'lim terapiyasida, balki global ijtimoiy diskurslarni rivojlantirish vositasi sifatida ham muhim qiladi. Narrativ metodlar inson va jamiyat taraqqiyotining kuchli epistemik va aksiologik mexanizmlari bo'lib, kelgusida ularni raqamli ta'lim, psixologik yordam va transmadaniy tadqiqotlarda qo'llash istiqbollari juda kengdir.

Zamonaviy raqamli ta'lim muhiti talabaning individual rivojlanishini, refleksiv kompetensiyalarini, kommunikativ savodxonligini va ijodiy tafakkurini oshirishga qaratilgan innovatsion yondashuvlarni talab qilmoqda. Ta'lim jarayoniga raqamli narrativ texnologiyalarni integratsiya qilish pedagogik amaliyotning samaradorligini oshiradigan muhim omillardan biri

hisoblanadi. So‘nggi yillarda rus va xorijiy ilmiy adabiyotlarda narrativ yondashuvning texnologik shakllari ta’lim jarayoniga chuqur kirib kelayotgani kuzatilmoqda⁵. Raqamli platformalar narrativ faoliyatning multimodal shakllarini rivojlantiradi va talabalarga o‘z pedagogik tajribalarini matn, audio, video, animatsiya va grafika orqali ifodalash imkoniyatini beradi. Shuning uchun ushbu texnologiyalarni pedagogik oliy ta’limning mazmuniga tizimli ravishda integratsiya qilish zamonaviy pedagoglar tayyorlashning muhim tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib bormoqda.

Multimedia hikoyalar talabaning real pedagogik jarayonni zamonaviy kommunikatsiya tili orqali ifodalash ko‘nikmasini shakllantiradi va kasbiy identifikatsiyasini kuchaytiradi.

Bu platforma talabalarga voqealarni tizimli, fazoviy va izchil tarzda ko‘rish imkonini beradi, bu esa analitik tafakkurni rivojlantirishga yordam beradi.

Podcast platformalari audio hikoyalar, suhbatlar, intervyular va talabalarining refleksiv yozuvlarini audioformatda yaratish imkonini beradi. YE.Yu.Sorokova media ta’lim jarayonida podkastlarning kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishdagi o‘rnini ilmiy asoslagan⁶. Pedagogik ta’limda podkastlardan foydalanish: pedagogik hodisalarni tahlil qilish; intervyu shaklida o‘quv jarayonini yoritish; amaliyot tajribasini og‘zaki hikoya ko‘rinishida aks ettirish; audio esse, audio dars rejalari yaratish imkonini beradi. Audio narrativ talabalarda nutq madaniyati, ifodali o‘qish, muloqot etikasi kabi kasbiy ko‘nikmalarni kuchaytiradi.

Narrativ yondashuv talabalarining kasbiy-emotsional intellektini rivojlantirishda yuqori didaktik salohiyatga ega bo‘lgan zamonaviy pedagogik vosita sifatida ilmiy jihatdan asoslanadi. Mazkur yondashuv ta’lim jarayonida



shaxsiy va kasbiy tajribani mazmunli hikoyalar orqali qayta anglashga yoʻnaltirilib, emotsiyalarni idrok etish, tahlil qilish va boshqarish koʻnikmalarining shakllanishiga xizmat qiladi. Narrativ faoliyat talabalarda refleksiya, empatiya, ijtimoiy sezgirlik va emotsional moslashuvchanlikni rivojlantirib, kasbiy vaziyatlarda samarali qaror qabul qilish imkoniyatini kengaytiradi. Didaktik nuqtayi nazardan, ushbu yondashuv subyekt-subyekt munosabatlarini mustahkamlab, taʼlim oluvchining faol ishtirokini taʼminlaydi hamda oʻquv motivatsiyasini oshiradi. Natijada kasbiy identifikatsiya jarayoni chuqurlashib, talabalarning emotsional kompetensiyalari kasbiy faoliyat talablari bilan integratsiyalashgan holda rivojlanadi. Shu jihatdan, narrativ yondashuv oliy taʼlim tizimida kasbiy-emotsional intellektni shakllantirishning metodik jihatdan samarali modeli sifatida eʼtirof etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Goleman D. *Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ*. — New York: Bantam Books, 1995.
2. Salovey P., Mayer J.D. Emotional intelligence // *Imagination, Cognition and Personality*. — 1990. — Vol. 9(3). — P. 185–211.
3. Bruner J. *Acts of Meaning*. — Cambridge: Harvard University Press, 1990.
4. McAdams D.P. *The Stories We Live By: Personal Myths and the Making of the Self*. — New York: Guilford Press, 2001.
5. Bolton G. *Drama as Education: An Argument for Placing Drama at the Centre of the Curriculum*. — London: Longman, 1984.
6. Schön D.A. *The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action*. — New York: Basic Books, 1983.



7. Zimnyaya I.A. *Pedagogicheskaya psixologiya*. — Moskva: Logos, 2004.
8. Klarin M.V. *Innovatsionnye modeli obucheniya v sovremennom obrazovanii*. — Moskva, 2016.
9. Abdullayeva M. *Pedagogik ta'limda shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asoslari*. — Toshkent, 2018.
10. Xodjayev B.X. *Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat*. — Toshkent: Fan, 2020.

